
STATISTIKA



Statistika

2023 yil 2-bosqichi uchun jami 3 milliard 698 million 600 ming so'm mablag' ajratilgan. Shundan 340 million so'm mablag' 2023 yil 1-bosqich ochiq byudjet jamg'armasidagi qoldiq, 135 million 100 ming so'm 2023 yil 1 va 2 chorak (pereвыpolneniye) qo'shimcha manbalaridan shakllangan mablag'lari hisobidan va 3 milliard 144 million 500 ming so'm 2023 yil byudjet parametrlarida (tuman byudjetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foizi) ko'zda tutilgan mablag' hisobidan ajratilgan.

Mazkur bosqichda g'olib bo'lgan loyihalar:

Qiymati 1 milliard 320 million so'm bo'lgan Rovon mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan 3-sonli maktabgacha ta'lim muaasasini joriy ta'mirlash hamda 10 kilovattli gibril quyosh panellari o'rnatish taklifi 3 520 ta ovoz bilan g'olib bulgan va pudrat tashkilot "Xushbaxti So'hrobzod" xususiy korxonasi bilan 753 million 238 ming 100 so'mga shartnoma tuzilgan. Hozirgi kunda 237 million 864 ming 600 so'm moliyalashtirilgan.

Qiymati 700 million so'm bo'lgan Saribozorcha mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan 29-sonli maktabga yozgi sport maydonchasi, sportzalini rekonstruksiya qilish hamda 10 kilovatli gibril quyosh panellari o'rnatish taklifiga 3 177 ta ovoz berilgan.

Qiymati 1 milliard 320 million so'm bo'lgan Yangiarik mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan tibbiy xizmat uyini joriy ta'mirlash va quyosh panel o'rnatish taklifi 2 262 ta ovoz bilan g'olib bo'lgan va pudrat tashkilot "Mash'al" xususiy korxonasi bilan 1 milliard 162 million 110 ming 300 so'mga shartnoma tuzilgan.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-02-17 14:44:20